

## MODULLI O'QITISHNING MOHIYATI

**Qosimov Xasan Tohir o'g'li**

5A111501-Ta'lim va tarbiya nazariyasi va  
metodikasi (chaqiriqqacha harbiy ta'lim)  
magistratura mutaxassisligi magistranti

### **Annotatsiya:**

Pedagogik ta'lim tizimida modulli o'qitishning joriy etilishi malakali pedagog kadrlarni tayyorlash samaradorligini oshirishga yordam beradi. Har qanday tizimga joriy etilgan yangilikning samarasi uning ishtirokchilari tomonidan puxta o'zlashtirib olingan taqdirdagina o'zining natijasini berishi mumkin. Shu bois pedagogik ta'limni modulli o'qitish asosida tashkil etish samaradorligini oshirish maqsadida uning monitoringini tashkil etish mavjud subyektiv va obyektiv muammo va kamchiliklarni hal qilish imkoniyatini yaratadi. Maqolada bu tizimni o'ziga hos afzalliklari va bu tizim haqida tushunchalar qayd etilgan.

### **Kalit so'zlar**

Ta'lim, pedagogik ta'lim, modul, modulli o'qitish, samarasi, afzalliklar, dastur, kasbiy-ijodiy fikrlash, mustaqil fikrlash, muammo va kamchiliklar, natija, tahlil.

Ma'lumki, modulli o'qitishning mohiyati shu bilan izohlanadiki, unga ko'ra, ta'lim oluvchi o'ziga taqdim etilgan individual o'quv dasturi asosida mustaqil tayyorgarlik ko'radi. Bu o'quv dasturini bajarish uchun harakatlar rejasi, axborotlar majmuasi, o'qitish natijalariga erishish bo'yicha aniq metodik tavsiyanomalar bo'lishi zarur<sup>1</sup>.

Modulli o'qitishning asosiy talablari jumlasiga quyidagilar kiradi:

— har bir modulning mazmuniga barcha materialni o'zlashtirib olish bo'yicha maqsad belgilashni;

— modul bir va bir necha didaktik maqsadga erishishni ta'minlashga qaratilishi;

— modullar mazmuni mustaqil fikrlash, mantiqiy o'ylash va amaliy faoliyatga yo'naltirilgan bo'lishi;

— kasbiy-ijodiy fikrlashni rivojlantirish maqsadida modulning o'quv materiali mazmuni muammoli tarzda berilishiga erishish shular jumlasidandir.

Modulli o'qitishda ta'lim oluvchilarning bilim, malaka, ko'nikmasi qat'iy ravishda nazoratning reyting tizimida baholanishini zaruriyat qilib qo'yadi.

Har bir modul bo'yicha tayyorlanadigan o'quv materiallari o'z ichiga o'qish davrini to'liq qamrab olgan modulli dastur, har bir modul bo'yicha nazariy materiallar (ma'ruza), o'quv-uslubiy tarqatma materiallar, har bir modul bo'yicha individual topshiriqlar, o'quv ilmiy adabiyotlar ro'yxati, har bir modul bo'yicha mustaqil ishlar uchun topshiriqlar va har bir modul bo'yicha nazorat topshiriqlarini qamrab oladi<sup>2</sup>.

Pedagogik ta'lim tizimida modulli o'qitishning joriy etilishi malakali pedagog kadrlarni tayyorlash samaradorligini oshirishga yordam beradi. Har qanday tizimga joriy etilgan yangilikning samarasi uning ishtirokchilari tomonidan puxta o'zlashtirib olingan taqdirdagina o'zining natijasini berishi mumkin. Shu bois pedagogik ta'limni modulli o'qitish asosida tashkil etish samaradorligini oshirish maqsadida uning monitoringini tashkil etish mavjud subyektiv va obyektiv muammo va kamchiliklarni hal qilish imkoniyatini yaratadi. Ayniqsa, bu boradagi ilg'or tajribalarni seminar-treninglar asosida muhokama etib, tashkiliy chora-tadbirlarning ko'rilishi modulli o'qitishning zamonaviy shakl va usullarini pedagogik ta'lim jarayoniga tatbiq etish imkonini beradi. Pedagogik ta'limga davlat va jamiyat ehtiyoji ortib borayotganligini hisobga olgan holda halqaro tajribaga ega

<sup>1</sup> Фарберман Б.Л. Прогрессивные педагогические технологии. – Т., 1999. – Б. 15.

<sup>2</sup> Rashidov X., Xabib X. va boshqalar. Kasbiy pedagogika. O'quv-uslubiy qo'llanma. – T., 2007. – B. 15.

bo'lgan yetuk mutaxassislarni tayyorlashning zaruriyatini inobatga olishni taqozo etmoqda. Eng muhimi, bugungi talaba va magistrning o'quv dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha zimmasiga yuklatilgan vazifasini teran his qilishi, oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilarining nafaqat kasbiy mahorati, shu jumladan, ularning pedagogik ilmiy salohiyatlarini qo'llash amaliyoti bo'yicha yetarli bilim va tajribaga ega bo'lishi lozim. Mehnat bozoridagi raqobat mutaxassisdan yetuk malaka va tajribaga ega bo'lishni talab etmoqda.<sup>3</sup>

“Modulli o'qitish” termini xalqaro tushuncha modul bilan bog'liq bo'lib, uning bitta ma'nosi – faoliyat ko'rsata oladigan o'zaro chambarchas bog'liq elementlardan iborat bo'ladi. Bu ma'noda u, modulli o'qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan informatsiya bloki sifatida tushuniladi<sup>4</sup>.

Modulli o'qitishga o'tishda quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

- o'qitishning (fanlar orasida va fanning ichida) uzluksizligini ta'minlash;
- o'qitishni individuallashtirish;
- o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish uchun yetarli sharoit yaratish;
- o'qitishni jadallashtirish;
- fanni samarali o'zlashtirishga erishish.

Shunday qilib, modulli o'qitishda talabalarni o'z qobiliyatiga ko'ra bilim olishi uchun to'la zarur shart-sharoitlar yaratiladi. O'qitishning modul tizimiga o'tish samaradorligi, quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi:

O'quv muassasasining moddiy-texnikaviy bazasi darajasi;

- professor-o'qituvchilar tarkibining malakaviy darajasi;
- talabalarning tayyorgarlik darajasi;
- ko'zlangan natijalarni baxolash;
- didaktik materiallar ishlab chiqish;
- natijalarning taxlili va modullarni optimallashtirish.

Modulli o'qitishga o'tishda quyidagilarni amalga oshirish ko'zda tutiladi:

- ishchi o'quv rejani chuqur tahlili asosida, o'zaro chambarchas bog'liq fanlar guruhi aniqlanadi, ya'ni butun o'quv rejasi alohida makromodullar to'plami sifatida qaraladi<sup>5</sup>.

Ko'pchilik hollarda quyidagi uch turdagi makromodullar tuzilishi mumkin:

A) gumanitar fanlarni o'z ichiga oladigan;

B) iqtisodiy fanlarni o'z ichiga oladigan;

V) umumta'lim, umutexnik, umumkasbiy va maxsus fanlarni o'z ichiga oladigan.

Har qaysi makromodulning mutaxassisni shakllantirishda, o'z maqsad va vazifasi bo'ladi. Ma'lum makromodulni o'rganish maqsadi, unga kiradigan fanlarning o'rganish maqsadlaridan kelib chiqadi.

Har qaysi makromodulning o'rganilish maqsadlari to'plami, davlat ta'lim standartlarida aks ettirilgan, mutaxassis kadr tayyorlashning bosh maqsadini tashkil etadi.<sup>6</sup>

Har qaysi makromodulning maqsadi aniq tuzilgan bo'lib, uning birinchi fani o'rganila boshlaganida, talabalarga yetkazilishi lozim. Makromodulning har bir keyingi fani o'rganila boshlaganida, u fanning o'rganish maqsadlari talabalarga yetkazilishi zarur.

Har qaysi makromodul ichida, o'rganiladigan fanlarning optimal ketma-ketligi va ularni muddatlari o'rnatiladi. Ya'ni o'qitishning uzluksizligini ta'minlab, fanlarning o'rganilish muddatlarini va shu orqali makromodulning o'rganilish muddatlarini qisqartirishga erishish zarur.

O'quv soatlari hajmi katta bo'lmagan (haftada 1-2, ayrim hollarda 3 soatli auditoriya mashg'ulotlari) fanlar, blok fanlar ro'yxatiga kiritilishi, maqsadga muvofiq bo'ladi va ular o'quv semestrining birinchi yoki ikkinchi yarmida o'tilishi mumkin.<sup>7</sup>

<sup>3</sup> Avliyokulov N.X. O'qitishning Moduli tizimi va pedagogik texnologiyasi amaliy asoslari, Buxoro, 2001. – B. 43.

<sup>4</sup> Raximov B.X., Mavlyanov A., Choriyev V. va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar sxemalarda. O'quv qo'llanma. – T.: Fan va texnologiyalar. 2009. – B. 17.

<sup>5</sup> Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot). – T.: Moliya. 2003. – B. 36.

<sup>6</sup> Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyaning tatbiqiy asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: Fan. O'zPFITI, 2006. – B. 26.

Makromodullar, vertikal o'zaro bog'liqlarni hisobga olish asosida tuziladi, ammo ularning o'rganilishi muddatlarini o'rnatishda makromodullar orasidagi gorizontol bog'liqliklar xisobga olinishi lozim:

- o'quv materialining takrorlanishini oldini olish maqsadida, makromodulga kiruvchi fanlar, o'quv dasturlarini o'zaro bog'liqligi ta'minlanadi.

Fanning ishchi o'quv dasturi, alohida mavzularni modulda guruhlanishi inobatga olinib, qaytadan ko'rib chiqiladi. Har qaysi modul uchun nazariy va amaliy ahamiyati ko'rsatilgan maqsadlar tuzilishi zarur.

Modul o'z ichiga 2-3 ma'ruza va shu ma'ruzalar bilan bog'liq bo'lgan amaliy darslar va laboratoriya ishlarini qamrab olishi mumkin.

Har qaysi modul bo'yicha quyidagi materiallar tayyorlanadi:

- talabalarining bilimini nazoarat qilish uchun testlar;
- individual ishlar uchun topshiriqlar;
- mustaqil ishlar uchun topshiriqlar;
- o'quv uslubiy tarqatma materiallar;
- o'quv-ilmiy adabiyotlar ro'yxati;
- ishchi o'quv dastur.

Har bir modul uchun tarqatma va tasvirli materiallar to'plami tuziladi va ular talabaga mashg'ulotdan oldin beriladi<sup>8</sup>.

Modul tavsiya qilinadigan adabiyotlar bilan ta'minlanadi. Har bir talaba materiallarni o'zlashtira borib, bir moduldan ikkinchi modulga o'tadi. Iqtidorli talabalar boshqalarga bog'liq bo'lmasdan test sinovlaridan o'tishlari mumkin<sup>9</sup>.

Modulli o'qitish, fanning asosiy masalalari bo'yicha umumlashtirilgan informatsiyalar beruvchi muammoli va yo'riqli ma'ruzalar o'qilishini taqozo etadi. Ma'ruzalar talabalarining ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilmog'i lozim. Modulning amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari ma'ruzalar bilan birga tuziladi, ular ma'ruzalar mazmunini o'rganiladigan yangi material bilan to'ldiriladi. Talabalar ma'lum amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Ma'ruzalar matnini tayyorlashda, strukturalash va tizimlash usullarini qo'llab, materiallarni blok-sxema, rasmlar bloki ko'rinishida taqdim etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda materialning o'zlashtirish samaradorligi oshadi, chunki:

- modulning pirovard maqsadi tushunib yetiladi;

- o'quv materialining elementlari orasidagi bog'liqlanishlar va uning o'tishlar yaqqol ko'rsatiladi;

- asosiy jihatlar ajratib ko'rsatiladi;

- o'quv materialining (modulning) butun hajmi talabaning ko'z oldida gavdalanadi. Modul tizimida o'quv materialining mazmunini strukturalashda, eng avvalo, informatsiyani "siqish" vazifasi ko'zlanadi. Bilimlarni to'la, foydalanish uchun qulay holda taqdim etilishiga harakat qilish lozim. O'quv informatsiyasi bir vaqtning o'zida 4 xil – rasmi, sonli, simvulli va og'zaki ko'rinishda uzatilganida eng mustahkam o'zlashtirishga erishiladi. Modulli ta'lim metodikasi tuzishda, bu holat asos bo'lib xizmat qiladi. Har qaysi modul bo'yicha rasmlar bloklarida simvulli alomatlarini (savollar qo'yilishi tarzida) joylashtirish, savollarni rasm tarzida tasvir etish, formulalar, jadvallar, grafiklar va uslubiy ko'rsatmalarni taqdim etish, maqsadga muvofiq bo'ladi<sup>10</sup>.

<sup>7</sup> Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot). – T.: Moliya. 2003. – B. 41.

<sup>8</sup> Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyaning tabiiy asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: Fan. O'zPFITI, 2006. – B. 16.

<sup>9</sup> Avliyokulov N.X. O'qitishning Moduli tizimi va pedagogik texnologiyasi amaliy asoslari, – Buxoro, 2001. – B. 44.

<sup>10</sup> Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyaning tabiiy asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: Fan, O'zPFITI, 2006. – B. 18.

Rasmlar bloki, sxemalar bloki va boshqa suratli (kurgazmali) materiallar talabalar uchun tarqatma material vazifasini ham bajaradilar. Shu bilan bir qatorda har bir fan, jumladan modul uchun atamalarning izohli lug'atini tuzish maqsadga muvofiq bo'ladi.<sup>11</sup>

Modulni o'qitishning samaradorligini oshirishga erishish uchun o'qitishning quyidagi usullarni qo'llash lozim:

- miyalar hujumi, muammoli muloqotlar, evristik suhbatlar, o'quv o'yinlar va hokazo.

O'qitishning modul tizimi mazmunidan uning quyidagi afzalliklari namoyon bo'ladi:

- fanlar, fanlar ichidagi modullar orasidagi o'qitish uzluksizligi ta'minlanishi;

- har bir modul ichida va ular orasida o'quv jarayonini barcha turlarining metodik jihatdan asoslangan muvofiqligi o'rnatilishi;

- fanning modulli tuzilish tarkibining moslanuvchanligi;

- talabalar o'zlashtirishi muntazam va samarali nazorat (har qaysi moduldan so'ng) qilinishi;

- talabalarining zudlik bilan qobiliyatiga ko'ra tabaqalanishi (dastlabki modullardan so'ng, o'qituvchi ayrim talabalarga fanni individual o'zlashtirishni tavsiya etishi mumkin);

- informatsiyani "siqib" berish natijasida, o'qishni jadallashtirish, auditoriya soatlaridan samarali foydalanish va o'quv vaqti tarkibini, ma'ruzaviy, amaliy (tajribaviy) mashg'ulotlar, individual va mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlarni – optimallashtirish.<sup>12</sup>

Buning natijasida, talaba yetarli bilimlarga ham, ko'nikmaga ham, o'quvga ham ega bo'ladi.

Shunday qilib modulli o'qitishdan foydalanib, malakali mutaxassisni tayyorlash, quyidagilar asosida ta'minlanadi:

- o'qitishning uzluksizligi (bunda fanlarni o'zlashtirish samaradorligi oshadi);

- o'qitishni jadallashtirish (buning natijasida informatsiyaning ko'p qismi, individual va mustaqil ishlash paytida, kompyuter tarmoqlari orqali o'zlashtiriladi);

- o'qitishni individuallashtirish (talaba o'z qobiliyatiga ko'ra bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladi).

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avliyoqulov N.X. O'qitishning Modul tizimi va pedagogik texnologiyasi amaliy asoslari, – Buxoro, 2001.
2. Rashidov X., Xabib X. va boshqalar. Kasbiy pedagogika. O'quv-uslubiy qo'llanma. – T., 2007.
3. Raximov B.X., Mavlyanov A., Choriyev V. va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar sxemalarda. O'quv qo'llanma. – T.: Fan va texnologiyalar. 2009.
4. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. – T.: Ta'lim markazi, 1999.
5. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot). –T.: Moliya. 2003.
6. Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyaning tatbiqiy asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: Fan. O'zPFITI, 2006.
7. Фарберман Б.Л. Прогрессивные педагогические технологии. – Т.: 1999

<sup>11</sup> Raximov B.X., Mavlyanov A., Choriyev V. va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar sxemalarda. O'quv qo'llanma. – T.: Fan va texnologiyalar., 2009. – B. 23.

<sup>12</sup> Raximov B.X., Mavlyanov A., Choriyev V. va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar sxemalarda. O'quv qo'llanma. – T.: Fan va texnologiyalar. 2009. – B. 28.